

## O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'LLASH TIZIMING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Burxonov Rasul Ramilovich<sup>1</sup>, Yusupov Shaxzod Shavkat o'g'li<sup>2</sup>,  
Jamilova Tursunoy Jamshid qizi<sup>3</sup>*

*<sup>1</sup> A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi, <sup>2</sup> Fizika va texnologik ta'lim fakulteti tyutori, <sup>3</sup> Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi  
Jizzax sh., O'zbekiston  
e-mail: rasul@jspi.uz*

***Annotatsiya.** Kasb-hunar ta'limi har doim jamiyat va davlatning rivojlanishi uchun hal qilinishi zarur bo'lgan masalalardan bir hisoblanadi. Ushbu maqolada kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan pedagogik jihatlar haqidagi mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** mehnat bozori, kambag'allik, ishsiz fuqaro, kasb-hunar tadbirkorlik, bandlik, uslub, tizim, diagnostik suhbat, psixologik, fiziologik va tashkiliy asoslar.*

\* \* \*

***Аннотация.** Профессиональное образование всегда было одной из проблем, которые необходимо решать для развития общества и государства. В данной статье представлены отзывы о педагогических аспектах, которые следует учитывать при проведении профориентационной работы.*

***Ключевые слова:** рынок труда, бедность, безработный гражданин, профессиональное предпринимательство, занятость, стиль, система, диагностическое интервью, психологические, физиологические и организационные основы.*

\* \* \*

***Annotation.** Vocational education has always been one of the issues that need to be addressed for the development of society and the state. This article provides feedback on pedagogical aspects that should be considered when conducting career guidance work.*

***Keywords:** labor market, poverty, unemployed citizen, professional entrepreneurship, employment, style, system, diagnostic interview, psychological, physiological and organizational basis.*

Hozirgi kunda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini

ta'minlashga qaratilgan davlat miqyosidagi keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>.

Ushbu yuklatilgan vazifalarni ijobiy hal etishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini amalga oshirishning shart-sharoitlari va imkoniyatlariga mos pedagogik uslubiy asoslar mavjuid. Ushbu pedagogik uslublarni samarali qo'llash orqali kerakli ijobiy natijjalarga erishish mumkin. Zaruriyat bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda biz quyidagi pedagogik uslubiy asoslarni to'g'ri qo'llash lozim deb hisoblaymiz.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisiga kasb tanlashga yo'llashda boshqaruvchilik ahamiyati, metodistning psixologik-pedagogik, umumtexnik va umumta'lim tayyorgarligi kabi qo'yiladigan talablardan iborat pedagogik asoslariga qarab har bir mashg'ulotni mavzu materialini tayyorlash kerak. Kasbga yo'naltirishda kuzatish, o'quvchi shaxsini o'rganish, diagnostik suhbatlar kabi ishlarni amalga oshiruvchi bosqichlar mazmunan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldirish kerak. Kasb tanlash ishining umumiy o'rta maktab tizimida eng avval o'qituvchining shaxsi, fan o'qituvchilari, sinf rahbari, maktab psixologi, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va boshqa shaxslarni ma'suliyati va kasb tanlashga uslubiyoti aniqlashtirilishi kerak. Shuningdek, kasb tanlashga yo'llash komissiya va kengashlari, o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish, o'quvchilar bilan ishlash; ota-onalar bilan ishlash kabi kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish rejalarini asosli holda tuzish kerak bo'ladi [2].

Kasb tanlash ishining tarbiyaviy yo'nalishida maktabda tarbiyalash darslarda kasb tanlashga yo'llash, boshqa soha mutaxassisliklarni kasbiy faoliyati bilan tanishtirish, umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofidagi korxonalarda bo'ladigan kasbiy faoliyatlar bilan tanishtirish, maktabdan tashqari tashkilotlarga ekskursiyalarni tashkil qilish, ommaviy axborotlarning ahamiyati bo'yicha kasbga yo'naltirishni kompleks rejasini ishlab chiqiladi.

---

<sup>1</sup> Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida o'zbekiston respublikasi prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son [qarori](#).

Kasbga yo'naltirish ishlarida jamiyatda kasblar mazmuni va olami, har bir kasbning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni kabilarni o'z ichiga mujassamlashtiruvchi kasbga yo'naltirishning ijtimoiy asoslari, kasbga yo'naltirish ishlarida o'quvchining psixologik holati, psixologik jihatidan shaxs erkin va ongli ravishda kasb tanlashga intilishlarini aks ettiruvchi kasbga yo'naltirishning psixologik asoslari, o'quvchilarni jismoniy va aqliy va fiziologik qobiliyatlarini xarakterlovchi kasbga yo'naltirishning fiziologik asoslari, kasb tanlashga yo'naltirish tizimining tarkibini asoslovchi tashkiliy asoslari va boshqa tizim faoliyatini amalga oshirishda kerakli asoslarni to'g'ri olish va foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, oliy ta'limda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarni tayyorlashda kasbga yo'nasltirishni ijtimoiy, psixologik, fiziologik va tashkiliy asoslari bo'yicha o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning tayyorlov yo'nalishiga asoslangan holda kasbga yo'llash ishlarini tashkil qilish, ularni ijtimoiy-siyosiy mamzundagi fanlarini o'rganishda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorlash, pedagogik fanlarni o'rganishda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga nazariy-metodik jihatdan tayyorlash, psixologiya fanining kasb tanlashga yo'llashda nazariy asoslari, pedagogika fanini o'rganishda kasb tanlashga yo'llash jarayonida metodik asoslari, talabalarni kasbga yo'llash tizimidagi mutaxassislik, ilmiy va ixtisoslik fanlarni umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'qitishning samaraviylik mezonini asosida o'qitish kerak bo'ladi[3].

O'quvchilarni har xil kasblar bilan tanishtirish xarakteri sekin o'zgartirib borilishi lozim. Agar V-VII sinflarda kasblar haqida umumiy tasavvur berish kifoya qilsa, VIII-IX sinflarda o'quvchilarni muayyan kasblarga yo'llash mumkin. Bunda, bir tomondan, o'quvchilarning moyilligini va jismoniy imkoniyatlarini, ikkinchi tomondan esa mazkur hududning ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini, yaqin-atrofdagi korxonalarini rivojlanish istiqbollari hisobga olish maqsadga muvofiq. Shaxsiy va jamoat manfaatlari uyg'unlashtirilgandagina o'quvchilar kasb tanlash masalasi to'g'ri hal qilinishi mumkin. Kasb tanlashga yo'llash ishi o'quvchilarning ota-onalari bilan mustahkam hamkorlikda olib boriladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlarda turlicha yondoshuvlar mavjud. Jumladan, E.A.Klimov kasbiy maslahatning holatlarini guruhlashtirishga o'zgacha yondoshgan. Uning fikricha, kasbiy maslahat quyidagi faktorlarga bog'liq bo'ladi:

- o'quvchida kasbiy rejaning mavjudligi yoki yo'qligi;
- o'quvchida qobiliyatning mavjudligi;
- o'quvchi mehnat bozorining talablariga mos kelishi.

Yuqoridagi qayd etilgan xossalarning turlicha birlashishi natijasida 17 xil kasbiy maslahat vaziyatlarini hosil qiladi.

Ko'pincha mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari hamda Respublikamiz olimlari o'tkazgan ilmiy-tadqiqotlarida bolajonlarning rayiga, xohish – istagiga, intilishini uch bosqichda tajriba–sinov ishlarini umumlashtirib tahlil qilganlar. Diagnostik maslahatlar va suhbatlar–yakka tartibda yoki jamoa tarzda o'tkazilishi mumkin. Psixolog olim K.M.Gurevich 3-4 yoshli bolalarda motivlarning birlamchi tobeligi va dastlabki irodaviy harakatning paydo bo'lishini tatbiq etib, bolaga jimjimador o'yinchoqni olishdan oldin o'zi yoqtirmagan ishni bajarish topshirig'ini bergan. Olingan ma'lumotlardan quyidagilar ma'lum bo'ldi:

–maktabgacha yosh davrida ezgu orzular yo'lida harakat qilish imkoniyati tug'iladi;

–ushbu orzularning bevosita bog'liq sabablari bevosita sabablarga qarganda ertaroq paydo bo'ladi;

– bevosita idrok qilinadigan narsalarga aloqador xohishni bajarishga qaraganda, narsaning o'ziga aloqador xohishni bajarishni muayyan muddatga kechiktirish osonroq.

Xatto o'quvchi bo'lajak kasb to'g'risida biror to'xtamga kelmagan bo'lsa ham, maslahat beruvchi (psixolog) o'quvchilardagi mavjud qiziqishlari, layoqati, qobiliyatlariga tayanishi kerak. Xulosa qilib buning zamirida bolaning mayilligi, niyati, orzusi, kasbga qiziqishi, xohish – istagi va tilagining mazmuni hamda xususiyatidagi o'zgarishlar yotadi. Maktab o'quvchilarining tahminan 25-30% foizida tanlangan kasbga nisbatan kasbga barqaror qiziqishlar 12-16 yoshlarda shakllanar ekan [4].

Psixologlar-o'quvchi yoshlarning kasb tanlash sabablarini umumiy o'quv-tarbiya vazifalardan quyidagi mulohazalrdan kelib chiqqan holda belgilaydilar:

- ijtimoiy yo'naltirilgan onglilikni tarkib toptirish, zaruriy hatti-xarakterlar sifatida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash yoki fuqarolik tuyg'ularini tarbiyalash;

- moyillik va layoqatlarni rivojlantirish, istalgan xatti-harakat sifatida kasbiy qiziqishni tarbiyalash yoki kasbiy tarbiyalash.

Shunday qilib, umumiy ta'lim maktabi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarning amalga oshirilishi kasbga yo'naltirishning bosqichlar mazmunini ilmiy va amaliy muammolarni ishlab chiqishni bir muncha faollashtirdi. Bu jarayon uzluksiz davom etayotgan, yoshga oid barcha bosqichlarda aniq maqsadga yo'naltiriladi. Bu maqsad o'quvchini mehnat qilishga o'rgatish, nafaqat mehnatni sevishga u bilan shunday uyg'unlashishiga ko'niktirish orqali mehnat uning vujudiga singib ketsin. Ularni kelajakda biror kasb egasi bo'lishida kasb-hunarga yo'naltirish ishlari muhim asos hisoblansin. O'quvchilar mehnatsiz biror-bir narsaga erisha olmasliklarini tushunib yetsin. Maktabda kasbga yo'naltirish ishi uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayon o'zaro mazmunan bog'langan yuqorida keltirib o'tilgan bosqichlarni to'liq bajarish orqali kerakli ijobiy natijalarga erishiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboyev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta talim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. –Toshkent: TDPU, 2000. 36 b.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. Toshkent: Fan, 2004.
3. K.Davlatov, Sh.Kuliyeva, Z.Sh.Shamsiyeva .Ishlab chiqarish va kasb hunarga yo'naltirish asoslari Toshkent. 2006 yil.
4. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.
5. Шарипов, Ш. С. (2018). Инновационные технологии в современном учебном процессе. *Молодой ученый*, (9), 185-188.
6. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования).
7. ШАРИПОВ, Ш. С., & АБДУРАИМОВ, Ш. С. (2018). МЕЖОТРАСЛЕВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ КАК ФОРМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ

- ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития* (pp. 58-65).
8. Шарипов, Ш. С., & Абдураимов, Ш. С. (2016). ИНТЕГРАТИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *КАЧЕСТВО ВЫСШЕГО И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОСТИНДУСТРИАЛЬНУЮ ЭПОХУ: СУЩНОСТЬ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ, ПРОБЛЕМЫ* (pp. 81-86).
  9. Malohat Abdurahmonova, Jamshid Orishev, ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ, Физико-технологического образование: Том 4 № 4 (2021)
  10. Jamshid Orishev, ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЛОЙИҲАЛИ ТАЪЛИМДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ, Физико-технологического образование: № 3 (2021)
  11. Orishev, Jamshid & Burkhanov, Rasul (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
  12. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГИК МАСЪУЛИЯТИ. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
  13. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)
  14. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
  15. Исмоилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низомов, Ш. Ш., & Юсупов, М. М. (2015). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТРУДА. *Н-34 Научно-практические основы устойчивого ведения аграрного*, 217.
  16. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низамов, Ш. Ш., & Суюнов, У. Д. (2019). Педагогические основы совершенствования творческой личности студентов. *Поволжский педагогический поиск*, (2), 104-111.
  17. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель" Руководитель-Участник-Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.